

AXOLI SALOMATLIGINI SAQLASH DAVLAT NAZORATIDAGI HUQUQIY MAJBURIYAT

Abduhalimova Marjona Alisher qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot isitituti 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti talabasi

+998971559459

Annotatsiya:

Sog'liqni saqlash aholi sog'lig'ini muhofaza qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog'liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog'lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko'rishni ta'minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni to'g'risida mulohaza yuritamiz.

Annotation:

Health is a system of social, economic and medical measures aimed at protecting the health of the population. We provide feedback on common measures aimed at preventing and treating health diseases, creating healthy living and working conditions, ensuring high working capacity and longevity.

Аннотация:

Здравоохранение-это система социальных, экономических и медицинских мероприятий, направленных на охрану здоровья населения. Здоровье мы размышляем об общих мерах, направленных на профилактику и лечение заболеваний, создание здоровых условий жизни и труда, обеспечение высокой работоспособности и долголетия.

Kalit so'zlar: Sog'liqni saqlash, Dor ushshifo, Salomatlik markazlari, Bepul tibbiy xizmatlar.

Ключевые слова: здравоохранение, Дор ушшифо, оздоровительные центры, бесплатные медицинские услуги.

Keywords: health care, Dor ushshifo, health centers, free medical services.

Sog'liqni saqlash borasida juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, xususan aholi sog'lig'ini muhofaza qilishda davlatning ham majburiyatlari borligi va bu majburiyatlarga davlatimiz tomonidan katta etibor berilayotganligining o'zi katta islohatlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz tomonidan yo'naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi, sog'liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog'lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko'rishni ta'minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko'zda tutadi; uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko'rsatishdan iborat.

"Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ishchi komissiya tashkil etilgan. Ishchi komissiyaning asosiy vazifalari etib Konsepsiyani amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda sifatli ishlab chiqish va kiritish hamda amaliy choralar ko'rilishini tashkil qilish belgilangan.

Vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining mutaxassislarini, fuqarolik jamiyati institutlari, yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalari va xalqaro tashkilotlarning vakillarini jalb etgan holda normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlash bo'yicha ekspert guruhlarini tuzilgan, ularning samarali faoliyatini tashkil etilgan. Dasturda nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining qonunchilikni, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tanqidiy tahlil qilish asosida tayyorlanishini ta'minlangan. Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini izchil va sifatli tayyorlanishi, o'z vaqtida belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi va kiritilishi, shuningdek, Dasturda nazarda tutilgan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirilgan. 2019-yil 1-aprelga qadar muddatda ayrim davolash-profilaktika muassasalarini belgilangan tartibda investorlarga ishonchli boshqaruvga berish bo'yicha investitsiya loyihalarini tayyorlasin hamda ularning O'zbekiston Respublikasi

Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining Investitsiya portalida joylashtirilishini ta'minlangan. Sog'liqni saqlash sohasidagi eng namunali davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarining monitoringini va keng tatbiq etilishini ta'minlangan. [1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida. <https://xs.uz/uz/>]

Sog'liqni saqlash Sharq mamlakatlari orasida xususan Markaziy Osiyoda O'zbekistonda uzoq tarixga ega. Ayniqsa o'rta asrlarda bu hududda tabobat ilmida yuqori bosqichlarga erishilgan. Turli tillardagi tibbiyotga oid asarlar arab tiliga tarjima etilib, ulardagi tavsiyalar amaliyotda qo'llanila boshlagan. Ayni vaqtda Sharq mutafakkirlari tabobat ilmidan olamshumul asarlar yaratganlar. Bu borada Abu Rayhon Beruniyning "Tibbiyotda dorishunoslik" (Kitob assaydana fittib), Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" (Al Qonun fittib) asarlari mashhur bo'lib, jahon tabobatida uzoq davrlar mobaynida asosiy qo'llanma bo'lib kelgan. Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sino davolashning yangi usullarini qo'llab tabib (hakim) sifatida o'z davrida juda mashhur bo'ldi. Keyingi davrlarda ham tabiblik Turkistonda sog'liqni saqlashning asosiy shakli bo'lib keldi. Tabiblar madrasalarda ta'lim olishgan yoki ustozshogirdlik yo'li bilan turli kasalliklarga, singanchiqqanlar, yarachaqalarga davo qilishni, xastaliklarning oldini olishni o'rganishgan. Ularning ko'plari nafaqat bemorlarni davolash, balki doridarmonlar tayyorlash bilan ham shug'ullanganlar.

Temuriylar davrida xususan Sohirqiron Amir Temur boshqa ma'rifiy ishlar qatori aholi salomatligini muhofaza qilish ishiga ham alohida e'tibor bergan. Boshqa mamlakatlar mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan. Movarounnahr va Xurosonda 8-9-asr dayoq shifoxonalar uchun maxsus binolar qurila boshlagan. Shifoxonalar 15-asrda Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda ham ko'p bo'lgan. Bunday jamoat shifoxonalari "Dor ushshifo" (Davolash uyi) nomi bilan yuritilib, ularda zamonasining bilimdon tabiblari bemorlarni davolashgan. "Dor ushshifo"dagi maxsus dorixonalarda dorishunoslar bemorlar uchun doridarmonlar tayyorlab berishgan. Aksariyat shifoxonalarda tabiblar bemorlarni davolashdan tashqari, tabobat ilmi bilan ham shug'ullangan. Shifoxonalar ochishga Alisher Navoiy ham katta ahamiyat bergan. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, keyingi yillarda ham Turkistonning ba'zi viloyatlarida maxsus shifoxonalar bo'lgan. Xususan, mashhur adib Vosifiy Zayniddin Mahmud (1485- 1551) "Nodir voqealar" (Badoye ulvaqoye) asarida Toshkentning shahar qo'rg'onidan tashqaridagi Kaykovus chorbog'i haqida qiziqarli voqealarni bayon qilib, bu yerda xon va sultonlar uchun shifoxona bo'lganligini yozgan. U davrlarda suv, havo, osmon, yer tozaligiga, ya'ni zamonaviy tushuncha — ekologiyaga ahamiyat berilgan.

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish ko'p jihatdan davlat epidemiologiya xizmati faoliyatiga bog'liq. O'zbekistonda sanitariyaepidemiologiya stansiyalari va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliyuslubiy va muvofiklashtiruvchi ishlarini olib boradigan "Salomatlik" markazlari bu vazifani amalga oshirmoqsa. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 40-moddasi "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. ega" deb yozilgani bu davlatning axoli salomatligini xar tomonlama kafolatlab qo'rganidan dalolatdir. [2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 40-moddasi. https://lex.uz/assets/img/lex_uz.svg]

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 26-moddasi. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas. Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas. [3.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 26-moddasi. https://lex.uz/assets/img/lex_uz.svg]. Prezident qaroriga muvofiq xususiy tibbiyot muassasalari 2022-yilning 1-yanvariga qadar barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etilgan.

Bepul tibbiy xizmatlarning turlari va hajmi xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. davlat tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar doirasini belgilab, pulli va bepul davolanish o'rtasida aniq chegara o'rnatilmagani fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni samarali hal etishga to'sqinlik qilayotgan muammolardan biridir. fuqarolar pulli va

bepul tibbiy xizmatlarning turlari, pulli tibbiy xizmatlardagi narx-navoning shakllanish asoslari to'g'risida ko'plab savollar bilan murojaatlar qilmoqda. Hattoki, ba'zi tibbiyot xodimlari ham qanday tibbiy xizmatlar davlat tomonidan qoplanishi to'g'risida aniq tushunchaga ega emas edi.

Xulosa o'rinda shuni takidlash joizkiy sohada uchrayotgan bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan aholiga davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari bilan kafolatlangan paket ishlab chiqilib, Moliya va Iqtisodiyot vazirliklari bilan kelishgan holda tasdiqlandi. Unga muvofiq, aholiga kafolatlangan paket doirasida tibbiy xizmatlar ko'rsatish dastlab, tajriba sinov tariqasida Sirdaryo viloyatida yo'lga qo'yish belgilandi va bu bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida.
4. Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
5. www.prezident.uz
6. www.lex.uz
7. www.ziyo.uz